

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

RAXIMOVA CHAROS XAMIDULLA QIZI

**FARG‘ONA VILOYAT TEATRLARIDA MILLIY DRAMATURGIYANING
SAHNA TALQINLARI
(1991–2021-yy.)**

17.00.01 – Teatr san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Raximova Charos Xamidulla qizi

Farg‘ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqinlari
(1991–2021-yy.)..... 3

Рахимова Чарос Хамидулла кизи

Сценические интерпретации национальной драмы в Ферганских
областных театрах (1991–2021 гг.) 19

Rakhimova Charos Khamidulla qizi

Stage interpretations of national dramaturgy in Fergana regional theaters
(1991–2021)37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

RAXIMOVA CHAROS XAMIDULLA QIZI

FARG‘ONA VILOYAT TEATRLARIDA MILLIY DRAMATURGIYANING
SAHNA TALQINLARI
(1991–2021-yy.)

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/San184. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Rizayev Amonulla Zufarovich
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Qobilova Feruza Nasrullayevna
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-iyun soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-iyundagi 11-raqamli revestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ijtimoiy-madaniy hayotida yuz berayotgan globallashuv jarayoni hamda transformatsion o'zgarishlar teatr san'ati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro teatr maydonida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar, dramaturgiya, rejissura, ssenografiya va aktyorlik san'atidagi janr hamda uslubiy o'zgarishlar, shuningdek, zamonaviy innovatsion sahna texnologiyalarini o'zlashtirish jarayonlari kuzatilmoqda. Natijada teatr san'atidagi mavjud an'analarni saqlab qolgan holda, novatorlik izlanishlarini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon teatrshunoslik ilmda mamlakatning yetakchi teatrlari qatorida hududiy teatrlar faoliyatini tadqiq etishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mavzuga oid tadqiqotlarda har bir teatr faoliyatiga ma'lum mamlakat yoki millatning madaniy o'ziga xosligi sifatida qaralib, uning alohida va individual qirralarini namoyon etish ustuvorlik qilmoqda. Shu o'rinda hududiy teatrlarning o'zaro ijodiy aloqalari, mamlakat teatr san'atining rivojidagi o'rni hamda ahamiyati, har bir hudud tarixi va etnomadaniyati bilan uzviy bog'liqligi kabi masalalarni o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda teatr san'atini yanada rivojlantirish, har bir hududdagi teatrlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, spektakllarning g'oya, mazmun va badiiy shakl jihatidan boyitish, ularni mavjud an'analarda asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu jarayonda respublikaning ayrim hududlaridagi teatrlarda malakali professional kadrlarning yetishmasligi tufayli dramaturgiya hamda rejissurada ijodiy sustkashliklar kuzatilmoqda. "Bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan, jiddiy ijtimoiy muammolar aks etgan sahna asarlari yaratish teatr ijodkorlari oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi"¹. O'zbekiston hududlaridagi viloyat teatrlari, xususan, Farg'ona viloyati musiqali drama teatrlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, rejissyorlik va aktyorlik tajriba hamda an'analarni chuqur tadqiq etish orqali teatrlar sahnasida to'laqonli spektakllarni yuzaga keltirish, repertuarini takomillashtirish, kelajak istiqbolini belgilash yuzasidan aniq va konkret xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / – Toshkent: "Xalq so'zi", 2017, 4-avgust.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Viloyat teatrlari foliyatini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ushbu yo‘nalishda qator xorijiy ilmiy tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, A.Heynrix, O.Tarnboll, J.Zaygler¹ tadqiqotlarida poytaxtdan olis hududlarda joylashgan regional teatrlarning taraqqiyot hamda inqiroz davridagi faoliyati tadqiq qilingan.

MDH davlatlari teatrshunoslik ilmida XX asrning so‘nggi yillaridan boshlab, hududiy teatrlar faoliyatini o‘rganish tendensiyasi boshlangan. M.Gilmulina, V.Dyakonov, Y.Suleymanov, Y.Shadrina² tadqiqotlarida poytaxtdan chekka joylardagi viloyat teatrlarining o‘ziga xosligi hamda tashkiliy-ijodiy xususiyatlari o‘rganilgan.

O‘zbek teatrshunosligida M.Rahmonov, T.Bayandiyev, M.Qodirov, T.Tursunov, M.To‘laxo‘jayeva, M.Hamidova, I.Muxtarov, S.Qodirova, D.Rahmatullayeva, Q.Jo‘raev, O.Tojiboyeva, M.Ahmetjanova, S.Tursunboyev, H.Ikromov, T.Yo‘ldoshev, Sh.Rizayev, O.Rizayev, M.Isokova, F.Abduvohidov, B.Yakubov, A.Ismoilov³ va boshqalarning ilmiy ishlarida turli aspektlarda tadqiq qilingan. Dissertatsiyani yozish

¹ Heynrix A. Entertainment, Propaganda, Education: Regional Theatre in Germany and Britain Between 1918 and 1945. London: University of Hertfordshire Press, 2007. – 271 p.; Tarnboll O. Bringing Down the House: The Crisis in Britains Regional Theatres. – London: Intellect Ltd, 2009. – 192 p.; Zeigler J. Regional theatre: The revolutionary stage. – New York: City, 1973. – 283 p.

² Гильмулина Е. Государственный русский драматический театр в Бурятии: Становление и развитие профессионального театрального искусства: Автореф. дисс. ... канд. иск. – Владивосток, 2006. – 27 с.; Дьяконов В. Театральное движение о провинциальной России XIX – начало XX века: Дисс. канд. иск. – Саратов, 1995. – 165 с.; Сулейманов Ю. Особенности становления и развития адыгейского театра: От истоков до конца 80-х годов XX века: Дисс. ... канд. иск. наук – Москва, 2003. – 150 с.; Щадрина Е. Тенденции в развитии музыкально-театрального искусства на Южном Урале: Дисс. ... канд. иск. наук – Магнитогорск, 2009. – 249 с.

³ Rahmonov M. O‘zbek teatri: XVIII asrdan XX asr avvaligacha. – Toshkent: Fan, 1966. – 287 b.; Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri: San‘at masalalari – teatrshunos nigohida. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – 204 b.; Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. – Toshkent: O‘zRFA nashriyoti, 1963. – 170 b.; Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi (1900-2007). – Toshkent: Art Press, 2010. – 568 b.; Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). – Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1995. – 86 с.; Хамидова М. Узбекская музыкальная драма: проблемы жанра. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1982. – 87 с.; Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1988. – 176 с.; Qodirova S. XX asr o‘zbek teatrida komediya san‘ati (shakllanish va taraqqiyot muammolari): San. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 45 b.; Rahmatullayeva D. O‘zbek dramaturgiyasi va teatr sahnasida tarixiy drama (shakllanish va rivojlanish muammolari): San. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: 1993. – 49 b.; Q.Jo‘raev. Yigirmanchi yillar o‘zbek dramaturgiyasi: Fil. fan. dok. dis. – Toshkent: 1994. – 287 b.; Tojiboyeva O. 80-yillar o‘zbek dramaturgiyasining sahnaviy talqin muammolari: San. fan. nom. dis. avtoref. – Toshkent: 1996. – 152 b.; Ahmetjanova M. O‘zbekiston yoshlar teatrlari mustaqillik davrida (yangi davr va uning sahnaviy yechimi): San. fan. nom. dis. – Toshkent, 2009. – 182 b.; Tursunboyev S. Andijon teatri. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – 133 b.; Ikromov H., Ahmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – 220 b.; Юлдашев Т. Проблемы современной узбекской драматургии (к вопросу о драматическом конфликте и характерах в драмах 70-х и начала 80-х годов). Автореф. дис. канд. иск. – Ташкент: 1984. – 18 с.; Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 316 b.; Rizayev O. Nabi Rahimov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997. – 104 b.; Isokova M.K. Xorazm etnomadaniyati va Yevropa rusumidagi teatrning rivojlanishi: San. fan. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2024. – 48 b.; Abduvohidov F.M. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2021. – 148 b.; Yakubov B. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-yy.): San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 172 b.; Ismoilov A. zamonaviy o‘zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari (1991–2016-yy.): San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 155 b.

jarayonida ushbu soha mutaxassislarning teatr faoliyatiga bag'ishlangan umumiy qarashlari hamda gazeta va jurnal maqolalaridan, zaruriy hollarda arxiv ma'lumotlaridan ham foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081 raqamli "XX-XXI asr boshlarida o'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona viloyatidagi musiqali drama teatrlarining tashkiliy-ijodiy shakllanish jarayonlari, repertuar siyosati, milliy dramaturgiyadagi janr va mavzu xilma-xilligi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg'ona viloyati musiqali teatrlarining mustaqillik yillaridagi faoliyatini ochib berish;

mustaqillik davrida sahnalashtirilgan spektakllarning mavzu, janr va uslubiy o'ziga xosliklarini aniqlash;

tarixiy mavzudagi hamda milliy va jahon klassik dramaturgiyasini sahnalashtirishda yuzaga kelgan an'ana va zamonaviy tendensiyalarni ochib berish;

tadqiqot natijalari asosida teatr faoliyatida shakllangan ijobiy an'analarni saqlash, yangi zamonaviy tendensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona viloyatidagi Qo'qon shahar musiqali drama teatri hamda Farg'ona viloyat musiqali drama teatrining tashkiliy-ijodiy faoliyati belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Farg'ona viloyati musiqali drama teatrlarining 1991–2021-yillarda milliy dramaturgiya asosida sahnalashtirilgan turli janr va mavzudagi spektakllar tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining tipologik, tarixiy-xronologik, tasnifiy, tahliliy, faktologik, solishtirma-qiyosiy, kompleks yondashuv kabi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysida zamonaviy teatr san'ati ijtimoiy tuzim-chorizm mustamlakasi ta'sirida tashkil topganligi (1915–1917-yillar), havaskorlik ijrosining rivojlanganligi (1917–1950-yillar), professionallashuv bosqichiga ko'tarilganligi (1950–1970-yillar), mustaqillik davrida dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'ati rivoji uchun ijodiy kadrlarni tayyorlash va teatrga jalb qilish tendensiyalari shakllanganligi aniqlangan;

tarixiy, mumtoz va zamonaviy asarlarni sahnalashtirishda mubolag'a, shartlilik, badihago'ylik kabi Farg'ona xalq og'zaki ijodiga tayanilganligi hamda mahalliy urf-odatlar, o'yinlar, kuy-qo'shiqlar aks etgan sahnaviy xususiyatlarning spektakllar mazmuniga singdirilganligi aniqlangan;

spektakllar ssenografiyasida, sahna bezaklari va kostyumlarni tayyorlashda Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan rang-baranglilik, yorqinlik, xarakterlilik, xalq

hunarmandchiligi, milliy kashtachilik kabi etnik badiiy uslublardan foydalanilganligi dalillangan;

mustaqillik davri teatri repertuarida ilg'or zamondoshlar obrazlarining sahna talqinlarini yaratishga bo'lgan intilish tendensiyalarining yuzaga kelganligi "Seni sog'indim", "Hazon bo'lgan umrlar", "Lola yohud barhamlarda ungan gul" singari asarlar misolida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublika teatrlarida faoliyat yuritayotgan yosh dramaturg, aktyor va rejissyorlarga o'z ijodiy yo'nalishlarini topish, an'ana va tarixiy tajribalarni, zamonaviy jarayonlarni kuzatish orqali ijod namunalarini yuzaga keltirishida manba yaratilgan;

tarixiy, milliy-mumtoz, afsonaviy va komediya asarlarning sahna talqinlarida Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan an'anaviy xalq og'zaki ijodi, folklor namunalaridan foydalanilganligi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil natijasida olingan xulosalarning jahon san'atshunosligi, teatrshunosligi va madaniyatshunosligining sinalgan metodlari va nazariy yondashuvlari qo'llanilganligi, asosiy natijalar xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprotatsiyadan o'tganligi, arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi va ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalar teatrshunoslik ilmi doirasidagi mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi va to'ldirishi, aniqlangan dramaturgiya, aktyorlik, rejissyorlik san'atidagi tendensiyalar, an'analar va novatorlik izlanishlari teatr tarixi, dramaturgiya tarixi fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati soha uchun professional kadrlarni tayyorlash, teatr rejissyorlari va aktyorlariga to'laqonli spektakllar sahnalashtirish, qahramon obrazini mukammallashtirish, xarakterli obrazlar yaratish, rejissyorlik topilmalari va ijodiy izlanishlar chegarasini kengaytirish, yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini berishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg'ona viloyati teatrlarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda zamonaviy holati yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg'ona vodiysida zamonaviy teatr san'ati ijtimoiy tuzim-chorizm mustamlakasi ta'sirida tashkil topganligi (1915–1917-yillar), havaskorlik ijrosining rivojlanganligi (1917–1950-yillar), professionallashuv bosqichiga ko'tarilganligi (1950–1970-yillar), mustaqillik davrida dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'ati rivoji uchun ijodiy kadrlarni tayyorlash va teatrga jalb qilish tendensiyalari shakllanganligiga oid xulosa va takliflardan Respublika teatr jamoalari faoliyatini kompleks o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 7-oktyabrdagi 02-11-17-3189-son ma'lumotnomasi). Natijada,

teatr san'atidagi tashkiliy-ijodiy jarayonlarni o'rganish, ko'rik-festivallar tashkil etish imkoni yaratilgan;

tarixiy, mumtoz va zamonaviy asarlarni sahnalashtirishda mubolag'a, shartlilik, badihago'ylik kabi Farg'ona xalq og'zaki ijodiga tayanilganligi hamda mahalliy urf-odatlar, o'yinlar, kuy-qo'shiqlar aks etgan sahnaviy xususiyatlarning spektakllar mazmuniga singdirilganligi aniqlanganligiga oid xulosa va takliflardan "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRKning 2024-yil 11-noyabrdagi 06-28-1241-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlar o'zbek teatr san'ati tarixi va bugungi jarayonlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishgan;

spektakllar ssenografiyasida, sahna bezaklari va kostyumlarni tayyorlashda Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan rang-baranglilik, yorqinlik, xarakterlilik, xalq hunarmandchiligi, milliy kashtachilik kabi etnik badiiy uslublardan foydalanilganligiga oid xulosa va takliflardan Farg'ona viloyatidagi musiqali teatrlar repertuarini shakllantirishda, mualliflar bilan ishlashda, ijodiy hamkorlikni rivojlantirishda, gastrol tizimini tashkil etishda, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lgan spektakllarni sahnalashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 7-oktyabrdagi 02-11-17-3189-son ma'lumotnomasi). Natijada, sahna ijodkorlarida mumtoz asarlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, asar g'oyasi va badiiyatining jamiyat estetik taraqqiyoti bilan mutanosibligini ta'minlashga xizmat qilgan;

mustaqillik davri teatri repertuarida ilg'or zamondoshlar obrazlarining sahna talqinlarini yaratishga bo'lgan intilish tendensiyalarining yuzaga kelganligi "Seni sog'indim", "Hazon bo'lgan umrlar", "Lola yohud barhamlarda ungan gul" singari asarlar misolida dalillangan xulosa va takliflardan "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRKning 2024-yil 11-noyabrdagi 06-28-1241-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlar o'zbek teatridagi zamonaviy jarayonlar haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhakamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 6 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqot predmeti va obykti aniqlangan, muammoning oʻrganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan maqolalar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fargʻona viloyati teatrlarining tarixiy shakllanish bosqichlari”** deb nomlanib, u ikki boʻlimdan iborat. Oʻzbekiston madaniyatining muhim oʻchoqlaridan biri sanalgan Fargʻona viloyatida faoliyat yuritib kelayotgan Qoʻqon shahar musiqali drama teatri hamda Fargʻona viloyat musiqali drama teatri oʻtgan davrlar mobaynida muhim tashkiliy-ijodiy jarayonlarni bosib oʻtdi.

“Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi boʻlimda, mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari sifatida tanlangan mavzuga doir manbalar haqida toʻxtalib oʻtildi. Shunga koʻra mazkur asoslarni shartli ravishda quyidagi tasnif asosida bayon qilish maqsadga muvofiqdir:

Jahon va MDH davlatlari teatrshunoslik ilmi miqyosidagi ilmiy-nazariy asoslar.

Oʻzbek teatrshunosligi doirasida yaratilgan ilmiy-nazariy asoslar.

Tanlangan tadqiqot mavzusining xorijiy mamlakatlar teatrshunoslari tomonidan oʻrganilgan ilmiy-nazariy asoslari haqida soʻz borganda, aytish mumkinki, jahon teatrshunoslik ilmi hududiy teatrlar faoliyatini tadqiq etish sohasida maʼlum tajribaga ega. Bu borada AQSh hamda Yevropa olimlarining xizmati katta. Xususan, J.U.Zaygler, A.Heynrix, O.Tarnboll kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarni qayd etish mumkin. Muayyan bir mamlakat ichidagi regional teatrlar faoliyatini ilmiy oʻrganish, tadqiqotlar olib borish masalasi rus teatrshunos olimlarining ilmiy izlanishlarida yorqinroq aksini topgan. Masalan, bu borada M.Kardinovanning **“XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya jamoat hayotida viloyat teatri: Nijniy Novgorod va Qozon guberniyalari materiallari asosida”** mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, Y.Gilmulinaning **“Buryatiya Davlat rus drama teatri: professional teatr sanʼatining shakllanishi va rivojlanishi”** nomzodlik dissertatsiyasi, Y.Suleymanovning **“Adigey teatrining shakllanish va rivojlanishdagi oʻziga xos xususiyatlari: XX asrning 80-yillari soʻngiga qadar”** mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, Y.Shadrinaning **“Janubiy Uralda musiqali teatr sanʼatining rivojlanish tendensiyalari”** mavzusida himoya qilingan dissertatsiyasini keltirish mumkin. Ushbu ilmiy ishlarning barchasida mahalliy teatr jamoalarining tashkiliy-ijodiy faoliyati tadqiq etilgan. Bu orqali rus teatri va madaniyatining umumiy koʻrinishi va shu bilan birga har bir hududning oʻziga xos alohida qirralari ochib berilgan. Mazkur manbalar hududiy teatrlarni tadqiq etishga hamisha ehtiyoj mavjudligini koʻrsatadi.

Oʻzbekistondagi viloyat teatrlari oʻzining rivojlanish bosqichida poytaxt teatrlaridan andoza olib turgan boʻlsa-da, talqin va ijro masalasida oʻz dastxatiga ega boʻlgan. Shunga qaramay, viloyat teatrlarining ijodiy faoliyati yaxlit holda kam oʻrganilgan. Bu jarayon Qoraqalpoq, Andijon, Surxandaryo hamda Xorazm teatrlaridan tashqari, aksariyat hollarda teatrshunoslar nazaridan chetda qolib kelgan.

Teatrshunos olimlar T.Bayandiyev, S.Tursunboyev, F.Abduvohidovning muayyan viloyat teatrlari haqidagi tadqiqotlarini o'rganib, boshqa viloyat teatrlariga o'xshash umumiy jihatlarni ham qayd etish mumkin. Bu holat o'zbek teatr san'atining yaxlit, umuminsoniy, milliy-estetik xususiyatlarini aks ettiradi. Biroq, aslini olganda, viloyat teatrlarining har biri o'ziga xos badiiy qiyofa, talqin va ijro uslublariga ega bo'lishi bilan birga, ayni hududga xos urf-odat, qadriyatlarni o'z faoliyatida aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi.

Shu ma'noda, Farg'ona viloyati teatrlari ham o'z qiyofasi va dastxatiga ega. Natijada, istalgan mahoratli teatr bilan bellasha oladigan kuchli ijodiy jamoaga aylandi. Tadqiqot ishining ilmiy-nazariy asoslari sifatida, Farg'ona viloyati musiqali teatrlari faoliyatini yorituvchi ilmiy-tarixiy, adabiy-ommabop manbalarni ham keltirish maqsadga muvofiqdir. Farg'ona viloyatidagi musiqali drama teatrlari faoliyati teatrshunos olim, akademik M.Rahmonovning ilmiy tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Olimning ta'kidlashicha, "Farg'ona viloyatidagi mazkur madaniyat o'choqlarining bir asrdan ziyod tarixiy shakllanish jarayonlari hamisha ham tekis va ravon bo'lmagan. Teatrlar jamoasi bosib o'tgan yillar davomida tinimsiz ijodiy izlanishlarni amalga oshirgan."¹ Pirovard natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu teatrlar bugungi kunga kelib, o'z qiyofasiga ega, istalgan mahoratli teatrlar bilan bellasha oladigan kuchli ijodiy jamoaga aylandi.

Birinchi bobning "**Farg'ona viloyati teatrlarining shakllanishida milliy dramaturgiyaning ahamiyati**" nomli ikkinchi bo'limi viloyatdagi dastlabki teatr jamoasi – Qo'qon shahar musiqali drama teatri hamda Farg'ona viloyat musiqali drama teatrlarining shakllanish va rivojlanish jarayonida havaskor truppadan professional ijodiy jamoa darajasiga ko'tarilib, kichik tasviriy-maishiy mavzulardagi asarlardan badiiy puxta yozma dramaturgiyaga asoslangan spektakllarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lganligi asoslab berilgan.

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida to'rtta teatr mavjud bo'lib, ulardan ikkitasi musiqali teatr, bitta qo'g'irchoq teatri va bitta rus drama teatri faoliyat yuritib kelyapti. Rus drama teatri bilan qo'g'irchoq teatri spesifik jihatdan boshqa tadqiqotlarda o'rganilayotgani bois, biz aynan Farg'ona vodiysida ilk professional teatr sifatida yuzaga kelgan musiqiy teatrlar faoliyatini milliy dramaturgiya bilan bog'liq holda o'rganishga harakat qildik.

Farg'ona viloyati teatrlarining bir asrlik tarixi Qo'qon muzofotida maydonga kelgan teatrchilik harakati bilan boshlangan. Bunda Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkil qilgan havaskorlik truppalarning ahamiyati katta. Dissertatsiyada bu jarayon shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganildi:

1915–1930-yillar. Bu davrda mahalliy ijodkorlarning asarlarini sahnalashtirish jarayoni kuzatildi. O'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi yirik ijtimoiy-siyosiy, madaniy harakat bo'lmish jadidlar izlanishlari bilan bevosita bog'liq. Teatrning shakllanish bosqichida ma'rifatparvarlar adabiyotining zabardast vakillari asarlariga murojaat etilib, o'ziga xos rejissyorlik talqini hamda ijro mahoratiga ega bo'ldi. Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining shakllanishi va rivojlanishida

¹ Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari) – Toshkent: Fan, 1968. – B. 148.

Qo‘qon teatri san‘atkorlarining munosib hissasi bo‘lib, bu holat professional kadrlar, zamonaviy dramaturgiya, teatr rassomi va musiqa ijrochilarining takomillashuviga sabab bo‘ldi. Bu yillarda asosan Hamza dramaturgiyasi ustuvorlik qildi. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Kim to‘g‘ri?” asarlari shular jumlasidan.

1930-yillardan boshlangan keyingi bosqichda teatr truppasi ancha jonlangan, ijodiy teranlik va tajriba yuksala boshlagan davr bo‘ldi. Natijada mahalliy dramaturglarning asarlari bilan bir qatorda xorijiy dramaturgiyaga ham murojaat qilina boshlandi. Repertuardan klassik asarlar ham muqim o‘rin oldi. “Malikai Turandot” (K.Gotssi, rej. K.Nazarov), “Skapening nayranglari” (Moler, rej. Z.Mirzatov), “Arshin mol olon” (U.Gajibekov, rej. K.Yoqubov) singari asarlar shular jumlasidan. Bunday tajriba milliy dramaturgiyaning mavzu va janr nuqtai nazaridan kengayishi va baquvvatlashib borishiga turtki bo‘ldi. Shuningdek, “Ikki kommunist” (mual. K.Yashin, rej. K.Yoqubov), “Paxta uchun kurash” (mual. S.Abdulla, rej. Z.Mirzatov), “Ichkarida” (mual. Z.Fatxullin, rej. M.Musayev), “G‘alaba” (mual. S.Xusayn, rej. Er Yigit), “Begona bola” (mual. V.Shkvarkin, rej. N.Molchanov), “Adolat” (mual. I.Akram, rej. S.Ahmedov), “Vatan” (mual. K.Yashin, rej. M.P.Verxatskiy), “Sotqinlar” (mual. Z.Fatxullin, rej. Z.Mirzatov), “Yondiramiz” (mual. K.Yashin, rej. M.Hamidov) asarlari sahna yuzini ko‘rdi.

Qo‘qon shahar musiqali drama teatrining ijodiy shakllanish tarixidagi 3-bosqich 1940–50-yillarni qamrab olgani holda, asosan vatanparvarlik, urush va undan keyingi davrlarda birdamlikka, yakdillikka chorlovchi asarlar asosiy o‘rinni egalladi. “G‘unchalar” (mual. Z.Fatxullin, rej. Q.Nazarov), “Vatan uchun” (mual. A.Po‘lat, rej. Q.Nazarov), “Ona” (mual. Uyg‘un, rej. Q.Nazarov), “Rus masalasi” (mual. K.Simonov, rej. Z.Mirzatov), “General Rahimov” (mual. K.Yashin, rej. Z.Mirzatov), “Uyg‘onish” (mual. N.Safarov, rej. Z.Mirzatov), “Davron ota” (mual. K.Yashin, rej. Q.Nazarov), “Hayot qo‘shig‘i” (mual. A.Qahhor, rej. S.Ahmedov), “Vatan ishq” (mual. Z.Fatxullin, Sh.Sadulla, rej. Q.Nazarov) kabi sahna asarlari shular sirasiga kiradi.

Milliy dramaturgiya yuksalgani sayin janrlarda rang-baranglik kuzatila boshlandi. Tarixiy-epos hamda tarixiy-biografik asarlar, xususan, “Alpomish” (mual. S.Abdulla, T.Jalilov, rej. Z.Madaliyev), “Alisher Navoiy” (mual. Uyg‘un, I.Sulton, rej. S.Qosimov), “Muqimiy” (mual. S.Abdulla, T.Jalilov, rej. Z.Madaliyev), “Hamza” (mual. K.Yashin, A.Umariy, rej. S.Qosimov) kabi tarixiy dramalar sahna yuzini ko‘rdi.

“Rus masalasi” (mual. K.Simonov, rej. Z.Mirzatov), “Vatan uchun” (mual. A.Po‘lat, rej. Q.Nazarov), “Yangi yer” (mual. A.Qahhor, rej. Q.Nazarov) kabi zamonaviy dramalarda sho‘ro davri mafkurasi ilgari surilgan bo‘lib, urush va undan keyingi voqeliklar gavdalandi. 1960-80-yillar o‘zbek dramaturgiyasining yuksalish davri deya e‘tirof etiladi. “Bu davrda ko‘plab yangiliklar ko‘zga tashlandi, o‘ziga xos ijodiy tamoyillar vujudga keldi”.¹ Zamonaviy mavzudagi sahna asarlarida ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etishga e‘tibor qaratila boshlandi. “Noma‘lum kishi”

¹ Yakubov B. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-yy.): San. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – B. 19.

(mual. I.Sulton, rej. Z.Mirzatov), “Ayajonlarim” (mual. A.Qahhor, rej. Q.Nazarov), “Oltin devor” (mual. E.Vohidov, rej. Q.Nazarov), “Shoshma, quyosh!” (mual. O.Umarbekov, rej. A.Azizov), “Insonni ardoqlang” (mual. Y.Xudoyqulov, Q.Nazarov), “Qil ko‘prik” (mual. va rej. A.Azizov), “Tikansiz tipratikanlar” (mual. Sh.Boshbekov, rej. Q.Nazarov).

Hukumat qaroriga binoan 1930-yilda tashkil topgan Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri 1931-yili “Ikki kommunist” pyesasi bilan o‘z sahnasini ochdi.

Komil Yashinning “Ikki kommunist” (1931) dramasi zamonaviy mavzudagi, mafkuraga mos xarakterlar yaratilgan asarlari toifasiga kiradi. Dramaturg o‘z pyesalariga qayta murojaat qilib, ularni sayqallab borish an‘anasiga sodiq qolgan holda, ushbu dramani ham “Tor-mor” nomi bilan qayta ishladi. Dramadagi yetakchi obraz – Arslon Angliya razvedkasining agenti Reylin, ichki dushman, o‘zbek millatchilaridan Xonrazzoqov, Miroqilboylar bilan keskin kurashga kira oladigan dadil, qo‘rqmas inson sifatida gavdalanadi. Pyesada o‘sha davr ruhi aks etgan, yangi jamiyatni mustahkamlash uchun xalqimiz olib borgan kurash hayotiy tarzda ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u repertuarda uzoq vaqt o‘z o‘rnini egallab tura olmadi.

Farg‘ona musiqali drama teatri faoliyatining dastlabki o‘n yilligida mahalliy dramaturglarning “Halima” (mual. G.Zafariy, rej. Tojizoda), “Hujum” (mual. Cho‘lpon, V.Yan, rej. Tojizoda), “Nomus va muhabbat” (mual. Uyg‘un, rej. M.Haydarov), “O‘rtoqlar” (mual. K.Yashin, rej. Tojizoda), “Bog‘bon qiz” (mual. S.Abdulla, rej. Tojizoda) kabi asarlar bilan repertuar boyitildi. “Besh so‘mlik kelin” (mual. M.Urdubodiy, rej. M.Haydarov), “Arshin mol olon” (mual. U.Gajibekov, rej. Tojizoda), “Uylanish” (mual. N.Gogol, rej. M.Ahmedov), “Malikai Turandot” (mual. K.Gotssi, rej. M.Ahmedov), “Ikki boyga bir malay” (mual. K.Goldoni, rej. M.Ahmedov) kabi jahon mumtoz dramaturgiyasi namunalari sahnalashtirildi. Farg‘ona viloyati markazida joylashgan ushbu teatrning Ikkinchi Jahon urushi davridagi tashkiliy-ijodiy faoliyat jarayoni (1941–1945-yy.)ni alohida e‘tirof etish mumkin. Mazkur davrda repertuardan joy olgan spektakllarda, asosan, tinch yurtga bostirib kirgan bosqinchilarga qarshi olib borilgan kurashlar aks ettirilgan.

1940–1950-yillarda “Nodira” (mual. Y.Mamatxonov, Y.Rajabiy, rej. S.Qosimov), “Layli va Majnun” (mual. Xurshid, rej. S.Qosimov), “Alisher Navoiy” (mual. Ug‘un, I.Sulton, rej. S.Qosimov), “Muqimiy” (mual. S.Abdulla, T.Jalilov, rej. Z.Madaliyev), “Hamza” (mual. K.Yashin, A.Umariy, rej. S.Qosimov), “Alpomish” (mual. S.Abdulla, T.Jalilov, rej. Z.Madaliyev), “Qumrining murodi” (mual. J.Mashrabi, M.Murtazov, rej. Z.Madaliyev), “Shohi so‘zana” (mual. A.Qahhor, rej. M.Haydarov), “Oltin ko‘l” (mual. Ug‘un, rej. M. Haydarov) singari davrga mos dolzarb mavzulardagi spektakllar sahnalashtirildi. Shu bilan birga, bu davrda teatr faoliyatida konsert dasturlari ham katta o‘rin tutdi. Mazkur dasturlar bilan urush va undan keyingi yillarda zavod va fabrikalar ishchi hamda xizmatchilari uchun konsertlar amalga oshirilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, ya‘ni 1950–1960-yillarda Farg‘ona viloyat musiqali drama teatriga yosh mutaxassis-kadrlarning jalb etilishi tashkiliy-ijodiy jarayonning yanada jonlanishi hamda to‘laqonli spektakllar sahnalashtirish nuqtayi nazardan samarali natijalarga erishuv yo‘lidagi muhim omil bo‘ldi.

Yangi ijodiy kuchlar hisobiga, teatr repertuari tomoshabin dunyoqarashi hamda davr ijtimoiy hayot manzaralari bilan parallel mazmun kasb etuvchi qator yangi sahnaviy asarlar – Ravshan va Zulxumor” (K.Yashin, T.Jalilov), “Tog‘a-jiyanlar” (R.Bobojon), “Toshbolta oshiq” (H.G‘ulom), “Meli xobbon-u Nabi tovon” (I.Hamroyev), “Tobutdan tovush” (A.Qahhor) hamda “Oy tutilgan tunda” (M.Karim) kabi qator spektakllar bilan boyidi. 1966-yilda ilk bor Farg‘onada qo‘yilgan “Gul va Navro‘z” (S.Abdulla,) spektaklidan boshlab musiqali drama spektakllarini yaratishda keskin o‘shish yuz berdi. 1968-yili teatrning Toshkentga rejalashtirgan ijodiy safari o‘tkazilib, poytaxtlilarga uch musiqali drama – “Gul va Navro‘z” (S.Abdulla), qayta qo‘yilgan “Nurxon” (K.Yashin), “To‘lino‘y” (Z.Madaliyev) va ikki drama – “Insof” (I.Akram), “Ayajonlarim” (A.Qahhor) asarlari namoyish etildi. Mavzuning dolzarbligi hamda professional aktyorlarning yuqori darajadagi ijrosi mutaxassislar tomonidan alohida e‘tirof etildi.

1970-yilda teatrga bosh rejissyor bo‘lib kelgan Nosir Otaboyevning qariyb 16 yillik hayoti Farg‘ona teatri bilan bog‘liqdir. U dastlab “Yo‘lchi yulduz” spektaklini sahnalashtirgach, ijtimoiy ko‘lami keng asarlarga diqqatini qaratib, “Baxtiyor gadolar” (K.Gotssi, 1972), “Parvoz” (Uyg‘un, 1975), “Revizor” (N.Gogol 1976) kabi yirik dramatik asarlarni sahnaga qo‘ydi. Rejissyorning mualliflar bilan bevosita ishlashi natijasida N.Yusufiyning “Muxtor vakil” (1977), M.Mirzayevaning “So‘nggi fojia” (1978), “Oq buloq parizoda” (1978) kabi milliy dramaturgiya asosida sahnalashtirilgan spektakllari ham teatr ijodida muhim iz qoldirdi.

Ikkinchi bob **“Qo‘qon shahar musiqali drama teatrida yetakchi janrlar”** deb nomlanib, u ham ikki bo‘limdan iborat. Ushbu bobda mustaqillik yillarida Qo‘qon shahar musiqali drama teatridagi turli janrlardagi spektakllar tahlil qilingan.

Bobning birinchi bo‘limida **“Drama va tragediya janridagi asarlarda ijtimoiy masalalarning yoritilishi”** deb nomlangan. Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy spektakllarga murojaat qilish ishlari jonlandi. Ular orasida avvalgi davrda yaratilgan asarlarning qayta sahnalashtirilgan variantlari mavjud bo‘lsa-da, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Al-Farg‘oniy kabi tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati haqida qator yangi spektakllar ham sahna yuzini ko‘rdi. Ushbu tarixiy asarlar Qo‘qon musiqali drama teatrida Maqsud Yunusov, Olimjon Salimov kabi tajribali rejissyorlar tomonidan sahnalashtirildi. Qo‘qon musiqali drama teatri ijodiy jamoasi mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz tarixi va muqaddas milliy an‘analarimiz hamda qadriyatlarimizni aks ettirgan asarlarga e‘tibor qaratdi. Xususan, XX asrning so‘nggi o‘n yilligida Qo‘qon teatrida sahna yuzini ko‘rgan “Tohir va Zuhra” (S.Abdulla, T.Jalilov; 1992), “Muhabbat qasri yoxud Toj Mahal” (mual. N.Abdulloh o‘g‘li, rej. M.Jo‘rayev; 1996), “Qo‘qonning o‘n ikkinchi darvozasi” (mual. N.Abdulloh o‘g‘li, rej. M.Jo‘rayev; 1997) kabi spektakllar shunday asarlar sirasiga kiradi. Ammo mustaqillik davrining dastlabki o‘n yilligidagi asosiy muammo shunda ediki, sahnaviy asarlarning mavzu va janr jihatidan kamyobligida ko‘rinib qoldi. Yangi davr talablariga javob bera oladigan badiiy jihatdan salmoqdor asarlarga ehtiyoh hamda rejissura va ijrochilik san‘atida yangi shakl va usullarni joriy qilishga bo‘lgan zarurat kuchaydi.

Mustaqillikning ikkinchi o‘nyilliklarida Qo‘qon musiqali drama teatrida sahnaga qo‘yilgan “Berk ko‘cha (mual. J.Mahmudov, rej. F.Toshxo‘jayev, 2004)”, “Hisobli

